

**HARBIY TA'LIM BO'YICHA BO'LG'USI MUTAXASSISLARNI KASBIY-AMALIY JISMONIY TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI****ОСНОВНЫЕ ВОПРОСЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ДЛЯ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБРАЗОВАНИИ В СФЕРЕ ОБОРОНЫ****URGENT ISSUES OF PROFESSIONAL-PRACTICAL PHYSICAL PREPARATION FOR FUTURE SPECIALISTS IN MILITARY EDUCATION****Xasanov Axadjon Tursinovich** Farg'ona davlat universiteti jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrasida dotsent
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylar uchun chaqiriqqacha harbiy ta'lim bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan, harbiy fakultet talabalari kontingentida o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar materiallari va ushbu fakultet talabalari uchun ishlab chiqilgan baholash meyorlari keltirilgan.

Аннотация

В статье рассматривается совершенствование системы подготовки специалистов по военному образованию для общеобразовательных школ и академических лицеев. Приведены материалы социологических исследований, проведенных среди студентов военных факультетов, а также разработанные критерии оценки для этих студентов.

Abstract

The article focuses on improving the system for training military education specialists for general secondary schools and academic lyceums. It presents materials from sociological research conducted among the students of military faculties and the assessment criteria developed for these students.

Kalit so'zlar: ta'lim, monitoring, innovatsion faoliyat, eksperimental tadqiqotlar, harakat tayyorgarligi, pedagogik eksperiment, meyorlar

Ключевые слова: образование, мониторинг, инновационная деятельность, экспериментальные исследования, двигательная подготовленность, педагогический эксперимент, нормативы

Key words: education, monitoring, innovative activity, experimental research, motor readiness, pedagogical experiment, gradation

KIRISH

Hozirgi kunda har bir davlatning armiyasini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ulardagi mavjud muammolarni har bir davlat o'zining bo'lajak harbiy ta'limi tizimini rivojlantirish va tayyorgarlik tizimini yaratishda, bo'lajak harbiy kadrlar tayyorlashda boshqa mamlakatlar armiyalarida bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan barcha ishlarni tahlil qilmasdan hal qilish mumkin emas.

Bu masala bo'yicha Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisida harbiy ta'lim bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar va yangi innovatsion usullarni joriy qilish zarurligini haqida gapirib: "kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta'lim sohasida eng ilg'or, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz", deb alohida ta'kidlaganlar [1].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida qabul qilingan Mudofaa Doktrinasi va Qurolli Kuchlarni isloh qilish dasturi gumanitar oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi bo'lajak harbiy ta'lim bo'yicha mutaxassislar hisoblangan talabalarining jiddiy kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini amalga oshirish zaruriyatini belgilab beradi. Bunday tayyorgarliksiz ular o'zlari ta'lim beradigan o'quvchilarda bo'lg'usi harbiy xizmat vaziyatlarida ongli va ishonchli tarzda harakat qilishga imkon beruvchi zarur bo'lgan sifatlarni shakllantira olmaydilar.

Bo'lg'usi harbiy ishning mutaxassisi uchun zarur bo'lgan bilim va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan vazifalarni hal etish maqsadidagi monitoring asosida mutaxassisning kasbiy

shakllanish jarayoni innovatsion faoliyat tuzilmasini modellashtirib, mutaxassisning kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirish lozim. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimli va faoliyatli - ijodiy yondashuv asosida o'tishi mumkin. Bunday yondashuv chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mutaxassisi shaxsini yaxlit shakllantirish jarayonining amalga oshirishini ta'minlaydi [2,5,9].

Talabalarning o'quv jarayonidagi innovatsion faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'p yillik eksperimental tadqiqotlar natijalarining monitoringi, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mutaxassisini tayyorlashning quyidagi ketma-ketlikni amaliyotga tadbiq etishga olib keldi:

- tadqiqotni ilmiy bilish metodologiyasi asoslarini egallash;
- talabalar Qurolli Kuchlarda innovatsion jarayonlar yuzaga kelishining maxsus va ilmiy shart-sharoitlari bilan tanishib chiqishlari lozim, chaqiriqqacha tayyorgarlik bo'yicha o'qitishni tashkil qilishga bo'lgan muqobil yondashuvlarni ijodiy talqin qila olishlari zarur;
- talabaning ijodiy individuallashtirishini parallel tarzda rivojlantirish, unda ijodiy vazifalarni aniqlash, shakllantirish, tahlil qilish va hal etish, avval o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarni yangi vaziyatlarga mustaqil ko'chira olish qobiliyatini shakllantirish;
- ta'lim jarayonida harbiy tayyorgarlik sohasidagi innovatsion faoliyat texnologiyasini egallash, innovatsion dasturlarni tuzish metodikalari, tajriba ishlari bosqichlari, yangilikning yanada rivojlantirilishini, joriy etish qiyinchiliklarini tahlil qilish hamda bashoratlash bilan tanishish;
- ta'lim yakunida tajriba maydonidagi yangilikni o'qituvchilarni chaqiriqqacha tayyorlash jarayoniga joriy etish bo'yicha amaliy ishni tashkil etish, tuzatishlar kiritish, tajriba natijalarini kuzatuvga olish; innovatsion faoliyatni tahlil qilish zarurligini taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Taniqli olim L.P.Matveyevning fikricha, jismoniy tarbiya dasturida «Talabalarning kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarligi» majburiy mavzu bo'yicha ma'ruza shaklidagi nazariy mashg'ulotlarni o'tkazishni nazarda tutadi [6].

Sh.X.Xankeldiyevning fikricha, o'quvchi – yoshlar kasbiy jismoniy tayyorgarligini iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda olib borish zarur.

I.L.Veselova fikricha, so'nggi vaqtlarda jamiyatda kasbiy faoliyat xususiyati jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Bu o'zgarishlar qayta ishga joylashish va fan hamda texnika sohasidagi ijtimoiy taraqqiyot holatlari bilan bog'liq.

Demak, oliy o'quv yurtidagi jismoniy tarbiya jarayonini qayta qurish lozim bo'ladi. U talabalarda aniq bilimlar, faoliyat usullari va ko'nikmalarning shakllanishiga olib kelishi kerak [4].

A.A.Belkin, A.M.Raxmatovlar 3-4 bosqichlarda talabalarning maxsus kasbiy tayyorgarligi davrida kajt samaradorligini oshirish masalasini o'rgana turib, shunday xulosaga kelganlarki, uni o'quv dasturlari mazmuniga kiritish zarur [3].

A.A.Kochkarov «Oliy serjantlar bosqichlari kursantlari kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlikning pedagogik texnologiyasi» mavzusidagi dissertatsiya ishida blokli-modulli ta'lim tizimini keltiradi. Bu yerda I blok ko'proq umumiy va maxsus - kasbiy chidamlilikni rivojlantirishga; II blok - kuch va kuch chidamliligini rivojlantirishga; III blok - tezkorlik, tezlik sifatleri hamda koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga va IV blok maxsus kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikka yo'naltirilgan [2].

O.X.Abdalimov «Maxsus mo'ljallangan ta'lim muassasalarida kasbiy amaliy jismoniy tayyorgarlik metodikasi» mavzusidagi dissertatsiya ishida pedagogik tajriba natijasida quyidagi bosqichlardan, ya'ni birinchi bosqich - boshlang'ich jismoniy tayyorgarlik; ikkinchisi - bazaviy jismoniy tayyorgarlik; uchinchisi - maqsadli jismoniy tayyorgarlik foydalanishni tavsiya qiladi [5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'quv-pedagogik jarayon sifati o'qitishning asosiy boshqaruvchi qoidalari -o'quv jarayonining ilmiy-pedagogik asosi bo'lib, xizmat qiluvchi didaktik tamoyillar qay darajada e'tiborga olinayotganligiga bog'liq.

Vatanimiz jismoniy tarbiya va kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik tizimida qabul qilingan eng muhim didaktik tamoyillar quyidagilardan iborat: g'oyaviylik va ilmiylik; maxsus kasbiy-amaliy yo'naltirilganlik; muntazamlilik, ko'rgazmalilik, ongillik va faollik, yengillik, optimallik.

O'qitishda g'oyaviylik va ilmiylik tamoyili o'rganilayotgan materialning jamoadoshchilik, bir-birini quvvatlash, o'rtoqchilik ruhini mustahkamlash bo'yicha choralari qabul qilishni taqozo etuvchi hamda davlat oldida turgan dolzarb vazifalari bilan uzviy bog'liqligini nazarda tutadi.

PEDAGOGIKA

Jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida bu tamoyilning qo'llanilishi o'rganilayotgan harakatlarning armiyada xizmat qilishga tayyor turish uchun yuqori ahamiyatga ega ekanligini chuqur tushuntirish, o'qitish jarayonini yuksak darajada ilmiy tashkil qilish asosida ularga jismoniy va axloqiy-irodaviy sifatlar zarurligini singdirish hamda jismoniy tayyorgarlik masalalariga doir barcha yangiliklarni hamda ilg'or tajribani joriy etish yo'li orqali amalga oshiriladi [9].

Maxsus kasbiy-amaliy yo'naltirilganlik tamoyilining o'quv jarayonida amalga oshirilishi avvalgi tamoyil bilan chambarchas bog'liq holda kechadi, chunki u ham, birinchi navbatda, kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlik vazifalarini hal etadi. Bu qoida jismoniy tayyorgarlik mazmunini muayyan tanlab olishda Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga tayyor turishni muntazam oshirib borish vazifalari bilan uzviy bog'liqlikka ega ekanligida aks etadi [7,8].

Muntazamlilik tamoyili ta'lim jarayonining uzluksizligini va qat'iy ketma-ketligini ta'minlashdan iborat. Pedagogik vazifalar faqat o'ylab va asta-sekin murakkablashtirilib borilgandagina shug'ullanuvchilarda yuqori sifatli hamda mustahkam malakalar va ko'nikmalarga erishish mumkin. Muntazamlilik tamoyilining asosi o'quv materialini izchil o'zlashtirib borish hisoblanadi. U quyidagi qoidalarga asoslanadi: osondan qiyinga, oddiydan murakkabga va tanishdan notanishga. O'qitishning muntazamlilik tamoyilining eng muhim tomoni o'quv-mashg'ulot jarayonining uzluksizligidir. O'qish va mashg'ulotlarda uzoq vaqt tanaffuslar bo'lganda so'nuvchi tormozlanish yuzaga keladi. U o'quv jarayonida erishilgan natijalarning keskin pasayib ketishini, ba'zan esa to'liq yo'qolib ketishini anglatadi.

Ko'rgazmalilik tamoyilida yangi amaliy mashqni o'rganish har vaqt u bilan tanishishdan boshlanadi va u qancha sifatli bo'lsa, uni keyinchalik o'zlashtirib olish shunchalik samaraliroq bo'ladi. Talabani o'z harakatlarini tahlil qila olishi, texnik jihatdan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlay olishi va ularni bartaraf eta bilishi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchi va talabani hamkorona ishi o'quv jarayoniga ilmiy-texnik taraqqiyotda qayd etilgan zamonaviy metodlarning keng joriy etilishiga, shuningdek, internet materiallari, fotosuratlar, kinogrammalar, o'quv kinofilmlari, chizmalar, sxemalar, rasmlar va boshqa ko'rgazmali materiallarning chuqur hamda batafsil o'rganilishiga asoslanadi. Shunday qilib, o'qitishda ko'rgazmalilikka qo'yiladigan talablar faqat bilishning boshlang'ich pog'onasiga taalluqli emas. U butun o'quv - tarbiya jarayonini qamrab oladi, uning sifat tomoniga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Yengillik tamoyili o'qitishni va tarbiyalashni shug'ullanuvchilar imkoniyatlariga mos holda tashkil etish zaruriyatini belgilab beradi. Jismoniy mashqlarni o'rgatishda yengillik tamoyilining o'ziga xos xususiyati - bu nafaqat malakani takomillashtirishda, balki (bu juda muhim) mashg'ulotlarda jismoniy yuklamani ketma-ket va asta-sekin oshirib borishda o'quvchining uddalay olishiga rioya qilish zaruratidir.

Kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlikda optimallik tamoyili ham amalga oshiriladi. Ushbu tamoyil mashqlanganlikning ko'chish qonuniyatlariga asoslanadi va shundan iboratki; hamma sifatlarni, malaka va xususiyatlarni maksimal chegaragacha rivojlantirish zarur emas, ularning rivojlanish darajasi ularning ahamiyatiga, shuningdek, oldindagi harbiy faoliyatning har xil turlariga jismoniy tayyor turish tuzilmasiga hamda ahamiyatlilik darajasiga qat'iy mos kelishi lozim.

Bu bosqichda o'qituvchining innovatsion o'rni uning innovatsiyalarga nisbatan qarashlari sifatida shakllanadi. Muhimi, ushbu pedagogik jarayon o'ziga xos maxsus vazifalarni izchil hal etish bilan bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Tashxislash-loyihalash bosqichi - bo'lajak o'qituvchilarning chaqiriqqacha tayyorgarlikni amalga oshirishga; maqsad va vazifalarni oldinga qo'yishga; pedagogik shart-sharoitlarni loyihalashtirishga; tegishli metodlar, vositalar va pedagogik usullarni tanlab olishga tayyorligini rivojlantirishning dolzarb darajasini tashxislashga yo'naltirilgan.

Shakllantiruvchi bosqich - asosiy bosqich bo'lib, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik o'qituvchilarining tayyorligini shakllantirishda belgilab beruvchi ahamiyatga ega.

Maqsad - bo'lajak mutaxassislarining ta'lim muassasalarida chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirishga va tashkil etishga tayyorliklari ilmiy - metodik asoslarini shakllantirishdir.

Har xil darajadagi (reproduktiv, produktiv va ijodiy) o'quv vazifalarining hal etilishi yo'li orqali o'zlashtiriladi. Yana shuni e'tirof etish lozimki, talabalar chaqiriluvchilarning bevosita xizmat joylarida Qurolli Kuchlar safidagi ofitserlar (zobitlar) tarkibining amaliy faoliyati bilan tanishadilar.

Baholash-tuzatish bosqichi chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlikni amalga oshirishga tayyor turishni shakllantirishda erishilgan natijalarni tahlil qilishga va mustaqil tahlil qilishga bag'ishlangan.

Amaliyotning ko'rsatishicha, harbiy ta'lim fakulteti talabalari «Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik» o'quv fanini o'rganish jarayonida nazariy hamda amaliy bilimlarning shakllanish qonuniyatlarini chuqur o'zlashtirib olishlari kerak.

Yuqoridagi fikrlar tadqiqot maqsadini aniqlab olish imkonini beradi, ya'ni gumanitar ta'lim muassasalarida harbiy ta'lim fakulteti talabalarining KAJT (kasbiy – amaliy jismoniy tayyorgarlik) dasturini tajribada asoslab berishni nazarda tutadi.

Umumiy va maxsus vazifalarni hal etish yo'li orqali oldinga qo'yilgan maqsadga erishiladi, bu yerda KAJTning umumiy vazifalari obyektiv vazifalardan kelib chiqadi va talabalarning kasbiy faoliyatiga hamda jismoniy xolatiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

KAJTning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- zarur jismoniy sifatlarni rivojlantirish va takomillashtirish;
- ushbu kasbdagi maxsus harakat malakalari va ko'nikmalarini egallash;
- jismoniy rivojlanish, harakat tayyorgarligi, organizmning noqulay mintaqaviy omillar ta'siriga nisbatan bardoshlilik darajasini oshirish hamda sog'liqni mustahkamlash.

Talabalarining bo'lajak kasbiy faoliyatini e'tiborga olgan holda shakllantirilgan maxsus vazifalarga quyidagilar kiradi:

- yuksak darajadagi jismoniy rivojlanishni, organizmning funksional holatini va harakat tayyorgarligini ta'minlashga qaratilgan vazifalar;
- keyingi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan vazifalar.

Aytib o'tilgan vazifalar o'quv jarayonida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan talabalarining KAJT bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslangan blokli tizimi asosida hal etiladi.

Butun ta'lim sikli davomida amalga oshiriladigan pedagogik monitoring ishlab chiqilgan baholash gradatsiyasini o'z ichiga oladi. Bu talabalarining umumiy jismoniy va maxsus kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligini aniqlashga, ularning ishga tayyor turish reytingini aniqlab olishga va jismoniy tarbiya hamda sport bo'yicha amaliy mashg'ulotlarga nisbatan motivatsiyaning hosil bo'lishiga yordam beruvchi metodlarni izlab topishga yordam beradi.

Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining ishlab chiqilgan KAJT bosqichini tajribada sinovdan o'tkazish jarayonida blokli-modulli o'qitish tizimi sxemasidan foydalanildi. Bunda IIV Akademiyasi serjantlar tarkibini tayyorlash bo'yicha Oliy kurslarga (A.A.Kochkarov, 2006) va o'rta maxsus ta'lim tizimiga avval joriy qilingan (Q.Q.Jabborov, 2008), lekin oliy gumanitar ta'lim muassasalaridagi harbiy mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayoniga qo'yiladigan talablarni hamda bo'lajak kasbning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda biz tomonimizdan yangilashtirilgan tizim asos qilib qabul qilingan edi.

To'rtta modul belgilangan bo'lib, ularning har biri bitta semestrga teng bo'lgan ikkita blokka bo'lindi. Bloklar umumiy, maxsus va KAJTni rivojlantirishga yo'naltirilgan edi. Har bir ta'lim blokidagi jismoniy yuklamalar hajmi, qo'llaniladigan vositalar va ularning maqsadga muvofiqqo'llanilishi davomiyligi aniqlandi.

O'qitish jarayonida modullar o'quv yuklamasini rejalashtirishning birgalikda - izchil tashkil qilinishi sxemasi bo'yicha tuzib chiqiladi. Bu yerda izchillik KAJT vositalarining qat'iy tartibda va navbatma-navbat kiritilishini anglatadi. Bunda ustuvor yo'nalishdagi KAJT vositalari qo'llanilib, talabalar organizmiga mashqlantiruvchi ta'sir ko'rsatuvchi yuklamalar hajmining o'sib borishi e'tiborga olindi. KAJT vositalaridan foydalanishda izchillik zarur funksional zaminni ta'minlaydi, uning asosida bosqichdan-bosqichga hajmi va shiddati o'sib boruvchi jismoniy yuklamalarning talabalar organizmiga mashqlantiruvchi ta'sir samarasi amalga oshiriladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan barcha bosqichlarda o'qiyotgan talabalarining jismoniy tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimi qabul qilingan.

I-IV bosqich talabalarining eksperimental guruhlar ma'lumotlari asosida ta'limning sifatiga obyektiv yondashuvni ta'minlovchi va darsdan tashqari vaqtda mustaqil shug'ullanishga imkon beruvchi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilishga o'smirlarni tayyorlashda yordam beruvchi talabalarining KAJT bo'yicha baholash meyorlari ishlab chiqildi (1-jadval).

Harbiy ta'lim fakulteti I-IV bosqich talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlarini baholash meyorlari

№	Testlar	Ballar				
		5	4	3	2	1
<i>I bosqich</i>						
1.	100 m.ga yugurish, sek.	11,8	11,9	12,0	12,1	12,2
2.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm.	270	255	240	225	210
3.	Turnikda tortilish, marta	18	17	16	15	14
4.	3000 m.ga kross, min.	10	11	12	13	14
5.	Granata uloqtirish, m.	47	44	41	38	35
6.	Yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish, marta	35	33	31	29	27
7.	Burslarda burchak bo'lib tayanish, sek.	18	17	16	15	14
8.	Turnikda tortilib, to'ntarilish.marta	14	13	12	11	10
9.	10×10m.ga, mokisimon yugurish, sek.	20	21	22	23	24
10.	Osilib turib oyoqlarni ko'tarish, marta	17	16	15	14	13
<i>II bosqich</i>						
1.	100 m.ga yugurish, sek.	12,4	12,5	12,6	12,7	12,8
2.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm.	270	260	250	240	230
3.	Turnikda tortilish, marta	18	17	16	15	14
4.	3000 m.ga kross, min.	11	11,5	12	12,5	13
5.	Granata uloqtirish, m.	46	44	42	40	38
6.	Yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish, marta	34	33	32	31	30
7.	Burslarda burchak bo'lib tayanish, sek.	17	16	15	14	13
8.	Turnikda tortilib, to'ntarilish., marta	17	16	15	14	13
9.	10×10m.ga, mokisimon yugurish, sek.	20	21	22	23	24
10.	Osilib turib oyoqlarni ko'tarish, marta	23	21	19	17	15
<i>III bosqich</i>						
1.	100m.ga yugurish, sek.	12,1	12,4	12,7	13,0	13,3
2.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm.	260	250	240	230	220
3.	Turnikda tortilish, marta	19	18	17	16	15
4.	3000 m.ga kross, min.	10,6	11,6	12,6	13,6	14,6
5.	Granata uloqtirish, m.	47	45	43	41	39
6.	Yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish, marta	38	36	34	32	30
7.	Burslarda burchak bo'lib tayanish, sek.	19	18	17	16	15
8.	Turnikda tortilib, to'ntarilish.marta	18	17	16	15	14
9.	10×10m.ga, mokisimon yugurish, sek.	16	18	20	22	24
10.	Osilib turib oyoqlarni ko'tarish, marta	19	18	17	16	15
<i>IV bosqich</i>						
1.	100 m.ga yugurish, sek.	12,5	12,8	13,2	13,5	13,8
2.	Turgan joyidan uzunlikka sakrash, sm.	280	260	240	220	200
3.	Turnikda tortilish, marta	17	16	15	14	13
4.	3000 m.ga kross, min.	10,2	11,2	12,2	13,2	14,2
5.	Granata uloqtirish, m.	48	46	44	42	40
6.	Yotib tayanib, ko'llarni bukib-yozish, marta	39	37	35	33	31
7.	Burslarda burchak bo'lib tayanish, sek.	16	15	14	13	12
8.	Turnikda tortilib, to'ntarilish., marta	15	14	13	12	11
9.	10×10m.ga, mokisimon yugurish, sek.	19,4	20,4	21,4	22,4	23,4
10.	Osilib turib oyoqlarni ko'tarish, marta	14	13	12	11	10

Yagona metodik va metrologik asosda davlat standartlari meyoriy talablarining tuzilishi – ta’lim tizimida o’quvchi yoshlarni jismoniy tarbiyasi bo’yicha dasturlarning meyoriy mazmunini izchilligini yaxshilaydi, ularning meyoriy mazmunining ilmiy asoslanganligini oshiradi va hayotiy, sport va mudofaa faoliyatining zamonaviy talablariga yaqinlashtiradi.

XULOSA

So’rovnomalar natijalari orqali o’rganilayotgan mutaxassislarning asosiy qismi innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy qilish zarurligini ko’rsatganligi aniqlandi, ammo ular nazariy va metodik tayyorgarlikning zamon talablariga mos holdagi darajasiga ega emaslar.

Blokli - bosqichli tamoyilga asoslangan KAJT dasturi ($r < 0,05$) bo’lganda harbiy ta’lim fakulteti talabalarining an’anaviy ta’lim tizimidan ishonchli tarzda samaraliroq va oliy ta’lim tizimida qo’llanilishi mumkin.

“Chaqiriqqacha harbiy tayyorgarlik” kursini o’rganishda chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarini kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi bo’limining metodologik va texnologik asoslari ishlab chiqildi hamda o’quv jarayoniga joriy etildi.

Tajriba tadqiqotlari o’tkazish davomida olingan natijalarga asoslanib, chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti I-IV bosqich talabalarining KAJTni baholash meyorlari ishlab chiqildi va O’zbekiston Respublikasining oliy ta’lim muassasalari tizimidagi maxsuslashtirilgan fakultetlarda ulardan foydalanish mumkin.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydigan maxsus oliy ta’lim muassasalarining pedagogik jamoasiga o’quv jarayoniga mos ravishdagi pedagogik tuzatishlar kiritish asosiga va yuqori malakali mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish ma’lumotlarini tahlil qilish asosiga ushbu tadqiqot natijalarini joriy qilish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018 yil 10 yanvarda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi “Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir” nomli nutqi. Xalq s’uzi gazetasi. №6 (6964) 11/01/2018.
2. Абдалимов О.Х. Методика ППФП в образовательных учреждениях специального назначения.// Методические рекомендации. – Т., 2006. – 23 с.
3. Белкин А.А., Рахматов А.И. Пути повышения эффективности ППФП студентов на старших курсах ВУЗа.// Тезисы Всероссийской научно-практической конференции. 20-22 июня Москва.2006, С.129-131.
4. Веселова И.А. Инновационные направления в обосновании содержания ППФПстудентов. // Тезисы Всероссийской научно-практической конференции, 20-22 июня Москва. 2006, - С.36-40.
5. Кочкаров А.А. Педагогическая технология ППФП курсантов высших сержантских курсантов: Автореф.дис.... канд. пед. наук. Т., 2006. – 27 с.
6. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Учебник. М. «ФиС»,1991.-543 с.
7. Xankeldiyev Sh.X., Xasanov A.T. Pedagogika kolleji o’quvchilarining jismoniy statusini rivojlantirishning innovatsion texnologiyasi. //Pedagogika. Ilmiy jurnal. 6-son. Toshkent. 2015 y. 125-130-betlar.
8. Ханкельдиев Ш.Х., Хасанов А.Т. Методические особенности здоровьесберегающих технологий в учебном процессе студентов.// Фан-спортга. Илмий-назарий журнал. 1-сон. Тошкент. 2016 й. 7-10 бетлар.
9. Xasanov A.T. Chaqiriqqacha harbiy ta’lim fakulteti talabalarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi pedagogik texnologiyasi: Ped. fan. bo’y. fal. dok.(PhD) diss... avtoref. Chirchiq. 2018. – 63 s.